

TURLI UGLEVODLI SUBSTRATLARNING INTRAGASTRAL YUBORILISHINING POSTPRANDIAL GIPERGLIKEMIYAGA TA'SIRI

Kuchkarova L.S., Achilov R.X., Baxadirova M., Dauletmuradova A. G.
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent.

Annotatsiya: semizlik, 2-tip qandli diabet va yurak-qon tomir kasalliklarni oldini olish uchun glyukoza va maltoza tutuvchi oziqa mahsulotlar kamroq istemol qilish maqsadga muvofiq, chunki ular yuqori darajadagi va davomli giperglikemiyaning kelib chiqaradi. Uglevodlarga nisbatan extiyojni qondirish uchun kraxmalli mahsulotlarni iste'mol qilish tavsiya etish mumkin, chunki bu holatda postprandial giperglikemiya kamroq ifodalanadi.

Kalit so'zlar: Qon, giperglikemiya, insulin, glyukagon, kortizol, qandli diabet, yurak-qon, postprandial.

Abstract: to prevent obesity, type 2 diabetes and cardiovascular diseases, it is desirable to consume less food products containing glucose and maltose, because they cause high and persistent hyperglycemia. In order to satisfy the craving for carbohydrates, it is recommended to eat starchy products, because in this case, postprandial hyperglycemia is less pronounced.

Key words: Blood, hyperglycemia, insulin, glucagon, cortisol, diabetes, cardiovascular, postprandial.

Аннотация: для профилактики ожирения, сахарного диабета 2 типа и сердечно-сосудистых заболеваний желательно употреблять меньше продуктов питания, содержащих глюкозу и мальтозу, поскольку они вызывают высокую и стойкую гипергликемию. Для удовлетворения тяги к углеводам рекомендуется употреблять мучные продукты, поскольку в этом случае постпрандиальная гипергликемия менее выражена.

Ключевые слова: Кровь, гипергликемия, инсулин, глюкагон, кортизол, диабет, сердечно-сосудистая система, постпрандиальный.

Postprandial giperglikemiya bu oziq-ovqat iste'mol qilgandan keyin qon plazmasidagi glyukoza konsentratsiyasini yuqorilashuvidir. Postprandial giperglikemiya ko'plab omillar: oziq-ovqat iste'mol qilish vaqti, miqdori, uglevod xili va tarkibi, insulin, glyukagon, kortizol hamda boshqa gormonlar sekretsiasiga bog'liq. Postprandial giperglikemiyaning me'yordan oshib ketishi 2-tipdagi qandli diabet, semirish va yurak-qon tomir kasalliklarga olib kelishi isbotlangan. Postprandial giperglikemiya birinchi navbatda oziq-ovqat tarkibidagi uglevodli substratlarning miqdoriga va tabiatiga bog'liq. Odatda ovqatlanishdan keyin qonda glyukoza konsentratsiyasi bir necha daqiqada ko'tarila boshlaydi va uning bunday ovqatga bog'liq bo'lgan yuqorilashuvi to'rt soatgacha davom etadi [1,2]. Postprandial giperglikemiyaning aniqlash ayniqsa diabet kasalligida katta ahamiyatga ega, chunki glukoza konsentratsiyasining keskin oshishi turli yurak qon-tomir kasalliklarining xavfini kuchaytiradi.

Ishning maqsadi – turli uglevodli substratlarning postprandial giperglikemiya ta'sirini aniqlash.

Tajribalar oq zotsiz massasi 180–200 g bo'lgan erkak kalamushlarda olib borildi. Kalamushlar xona harorati $23\pm 3^{\circ}\text{C}$, nisbiy namlik 40–70%, tabiiy yorug'lik, oziqa va suv cheklanmagan rejimida saqlandi.

Posprandial giperglikemiya chaqirish uchun hayvonlarga 50 mg/kg dozasi glyukoza, saxaroza, maltoza va kraxmallarning suvli 20% eritmalari intragastral ravishda yuborildi. Kalamushlar qonida glyukoza substratlar yuborilgandan oldin, hamda 10, 20, 30, 60, 90 va 120 daqiqa vaqt oralig’ida aniqlandi. Qondagi glyukoza konsentratsiyasini aniqlash uchun kapillyarlarni kengaytirish maqsadida kalamushlar dumli iliq suvda 3 minut davomida saqlangandan keyin novokain va spirt eritmasi bilan artilildi. Keyin dumning uchi o’tkir qaychi bilan qirildi. Chiqqan qon tomchisidagi glyukoza miqdori glyukometr Accu-Chek Active (Germaniya) yordamida aniqlandi. Natijalar Styudent t-test yordamida tahlil qilindi.

Turli uglevodli substratlar kalamushlarga intragastral yuborilgandan keyin qonda glyukoza konsentratsiyasining o’zgarish dinamikasi jadvalda keltirildi.

Turli uglevodlarning kalamushlarga intragastral yuborilishi postprandial giperglikemiya ta’siri ($M \pm m$; $n=6$)

Substrat yuborilgandan keyin o’tgan vaqti (min)	Substrat			
	Glyukoza	Saxaroza	Maltoza	Kraxmal
0	6,3±0,57	6,2±0,30	6,2±0,55	6,9±0,58
10	7,6±0,75*	6,8±0,55	6,4±0,65	6,8±0,65
20	9,0±0,55*	6,9±0,30*	7,4±0,69*	7,5±0,67*
30	9,1±0,57*	6,4±0,55	8,5±0,65*	8,0±0,61*
60	8,3±0,67*	6,0±0,65	7,8±0,75*	7,1±0,55
90	7,5±0,30*	6,2±0,65	7,0±0,35*	7,1±0,45
120	6,8±0,65	5,7±0,55	6,3±0,62	6,5±0,60

Izoh: * – substratlar yuborilganga qadar bo’lgan ko’rsatkichlariga nisbatan statistik jihatdan ishonarli bo’lgan farqlar.

Olingan natijalar shuni ko’rsatdiki, glyukozaning monomer eritmasidan so’rilishi kuzatuvning 90 minutgacha oshib, keyin kamaya boshlaydi, lekin tajribaning oxirida ham nazorat kattaliklardan statistik jihatdan muqarrar darajada yuqori bo’lib qolaveradi. Giperglikemiya ifodalanuvchi saxaroza eritmasidan glyukozaning so’rilishi shiddatli ekanligi, faqat kuzatuvimizning 20 daqiqasida kuzatildi. Kraxmal eritmasidan glyukozaning qonga o’tishining tezlashuvi faqat kuzatuvning 20-60 minutalarda qayd etildi.

Shunday qilib, natijalar ko’rsatmoqdaki, turli uglevodli substratlardan glyukozaning qonga o’tish shiddatligi bir xil emas. Glukozadan monomerning so’rilishi eng samarali ifodalangan bo’lib, kuzatuvning 90 minutgacha davon etdi. Saxaroza eritmasidan glukoza so’rilishining yuqorilashuvi faqat tajribaning 15 minutida kuzatildi. Maltoza eritmasidan

glyukoza qonga o’tishi tajribaning 30 minutgacha yuqorilashib, keyin esa pasaya boshladi va tajribaning yakunida me’yoriy kattaliklarda qayd etildi. Khaxmaldan esa glyukoza qonga o’tish shiddatligining oshishi kuzatuvning 20 va 30 minutlarda qayd etildi.

Demak, turli uglevodli substratlar hazm yo‘liga tushgandan keyin qonga glyukoza so‘rilish dinamikasi bir xil emas. Eng yuqori darajadagi giperglikemiya glyukoza va maltoza eritmalar intragastral yuborilgandan keyin ro‘y beradi. Hazm yo‘liga tushgan saxaroza va kraxmal eritmalaridan glyukoza qonga o’tishi nisbatan kam darajada ifodalandi.

Demak semizlik, 2-tip qandli diabet va yurak-qon tomir kasalliklarni oldini olish uchun glyukoza va maltoza tutuvchi oziqa mahsulotlar kamroq istemol qilish maqsadga muvofiq, chunki ular yuqori darajadagi va davomli giperglikemiyani keltrib chiqaradi. Uglevodlarga nisbatan extiyojni qondirish uchun kraxmalli mahsulotlarni iste’mol qilish tavsiya etish mumkin, chunki bu holatda postprandial giperglikemiya kamroq ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burcelin R., Knauf C., Cani P.D. Pancreatic alpha-cell dysfunction in diabetes. *Diabetes Metab.* 2018; 34. P. 49–55.
2. Barroso I. Genetics of type 2 diabetes. *Diabet Med.* 2015; 22:517–535.